

Date: 5th June-2025

INKLYUZIV TA`LIM TUSHUNCHASI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Rabbimova Sarvinoz Jurabek qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang`ich ta`lim)yo`nalishi

1-bosqich magistri

sarvinozrabbimova3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ‘inklyuziv ta`lim’ so`zining ma`no va mazmuni , uning maqsad va vazifalari , bugungi kunda inklyuziv ta`lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma`lumotlar beriladi.

Kalit so`zlar: inklyuziv ta`lim, korreksion pedagogika ,tamoyil,ijtimoiy muhit, ta`limga muhtoj.

Inklyuziv so`zi inglizcha ‘inclusive’ so`zidan olingan bo`lib, hammani qamrab oluvchi, jamoaviylik, birlashtirish , qo`shish degan ma`nolarni bildiradi. Mazkur atama alohida ta`limga muhtoj bolalarning sog`lom bolalar bilan birgalikda , bir xil ta`lim muhitida ta`lim olishini bildiradi.

Inklyuziv ta`lim- bu imkoniyati cheklangan (jismoniy, aqliy yoki o`quv qiyinchiliklariga ega) bolalar va sog`lom bolalar birgalikda o`qib- o`rganadigan ta`lim shakli.Inklyuziv ta`lim har bir bolaning , jumladan, jismoniy yoki aqliy salohiyati cheklangan, maxsus ehtiyojlarga ega yoki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan noqulay sharoitda yashaydigan bolalarning teng huquqli ta`lim olishini ta`minlashga qaratilgan yondashuvdir.

Shuningdek, inklyuziv ta`lim davlat siyosatiga molik ish bo`lib, u nogironligi bo`lgan , alohida yordamga ehtiyojmand bo`lgan bolalar bilan sog`lom bolalar o`rtasidagi farqlarni bartaraf qilish, ularni qo`llab-quvvatlash, iqtisodiy qiyinchilik yoki ijtimoiytafovutlarga qaramasdan ularga ko`mak berishga qaratilgan ta`lim tizimini anglatadi.

Ushbu ta`lim jarayoni jismoniy yoki psixik nuqsonlarga ega bo`lgan bolalarning sog`lom bolalar bilan birgalikda ta`lim olishiga qaratilgan bo`lim , bu jarayonda inklyuziv ta`lim quyidagi tamoyillarga asoslangan holda ish olib boradi:

1. Teng huquqlilik: Har bir bola , qaysi millat, irq, din yoki jismoniy holatidan qat`iy nazar , ta`lim olish huquqiga ega.

2. Diskriminatsiyasiz yondashuv: Nogironligi yoki ehtiyojlaridan qat`iy nazar , barcha bolalar bir xil sharoitda o`qishi kerak.

3. Individual yondashuv: Har bir bolaning ehtiyojlariga moslashgan holda alohida ta`lim dasturi yaratiladi.

4. Moslashuvchanlik: Ta`lim jarayoni turli xil ehtiyojlarga moslashadi, bu esa bolalarning qobiliyatini maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradi.

5. Hamkorlik va qo`llab-quvvatlash: O`qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning hamkorligi orqali ta`lim jarayonini yaxshilash maqsad qilinadi.

Date: 5th June-2025



Inklyuziv ta`limning maqsadi- alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan o`quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo`llab-quvvatlash orqali maxsus pedagoglarni jalg etgan holda to`siksiz moslashtirilgan ta`lim muhitini yaratish , ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to`laqonli uyg`unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta`lim berishni ta`minlashdan iborat.

Inklyuziv ta`limning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Har bir bolaga teng imkoniyat yaratish: Jismoniy , intellektual yoki rivojlanish cheklovleri bo`lgan bolalarga ham sog`lom bolalar qatori teng ta`lim olishlari uchun shart sharoitlar yaratish.

2. Ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish: Nogironligi bor bolalar va sog`lom bolalar birgalikda o`qib , bir-birini tushunish va qo`llab- quvvatlash madaniyatini shakllantirish.

3. Individual yondashishni shakllantirish: Har bir o`quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda ta`lim jarayonini tashkil etish.

4. Kamsitishni bartaraf etish: Sog`lom bolalar tomonidan nuqsoni bo`lgan bolalarga nisbatan har qanday jismoniy yoki ruhiy cheklovlni bartaraf qilish , ularga to`g`ri tushuntirish ishlarini olib borish.

5. Mustaqil hayotga tayyorlash: Maxsus ehtiyojli bolalarni mustaqil hayotga, kasb-hunar o`rganishga va jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlash.

6. Ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik qilish: Oilalar va jamoatchilikning inklyuziv ta`lim jarayonidagi birgalikdagi hamkorlik faoliyatini kuchaytirish.

7. O`qituvchilarni tayyorlash va qo`llab-quvvatlash : Pedagoglarni maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga tayyorlash va metodik yordam ko`rsatish.

Inklyuziv ta`lim jarayonida alohida yordamga ehtiyojli , nogironligi bo`lgan bolalar sog`lom o`quvchilar bilan bir qatorda o`qitiladi . Ularning ta`lim jarayoniga moslashishi, ijtimoiylashuvi uchun maxsus pedadogik muhit , alohida ham ota-onalar , ham o`qituvchi-murabbiylar tomonidan qo`llab- quvvatlashlar zarur bo`ladi.Nafaqat ta`lim jarayonida , balki butun hayotlari davomida alohida ta`lim ehtiyojiga ega bo`lgan bo`lgan bolalarga qo`llab-quvvatlash zarur bo`ladi va bu jarayon ularning ijtimoiylashishi uchun zarur sanaladi.

Nogironligi bo`lgan , jismoniy yoki aqliy faoliyatida nuqsoni bo`lgan bolalar uchun o`zları singari bolalar bilan bir maktabda o`qish ham foydali bo`lishi mumkin. Masalan, nutqida yoki eshitishida nuqsoni bor bolalar bitta sinfda o`qishlari, o`zlariga mo`ljallangan, qulay bo`lgan maxsus ta`lim vositalaridan foydalanishlari qaysidir tomonidan ma`qul sanaladi. Lekin bunday holatda nuqsoni bo`lgan bolalarda jamiyatning boshqa a`zolari bilan ijtimoiylashuvi, muloqotga kirishuvi , moslashishi qiyin bo`lishi mumkin.Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa bolalar bilan bir xil sharoitda ta`lim olishi , bir xil dasturlardan foydalanishi muhimdir.

Shu nuqtai nazardan gapiradigan bo`lsak, imkoniyati cheklangan bolalar o`quv mashg`ulotlarini amalga oshirish jarayonida ularda boshqa bolalarga nisbatan oldinga o`tish yoki orqada qolish holatlari bo`lishi mumkin va bu ularning jismoniy yoki aqliy faoliyatidan kelib chiqib belgilanadi . Bunday vaziyatda o`qituvchilar imkoniyati

Date: 5th June-2025

cheklangan bolalarning sog`lom bolalardan orqada qolmasliklari , bиргаликда о`кув mashg`ulotlarini olib borishlari,fan mashg`ulotlarini o`zlashtirishlari uchun qo`shimcha topshiriq va vazifalar berishlari, ko`proq shug`ullanishlari talab qilinadi.

Aloҳida yordamga muhtoj , nogironligi bo`lgan o`quvchilarga ta`lim berishning istiqbolli shakllaridan biri ularni sinflar yoki guruhlarga biriktirgan holda , ta`lim jarayonini sog`lom bolalar bilan bir qatorda olib borish , uyg`unlashuvga erishishdir. Imkoniyati cheklangan o`quvchilar ta`limining imkoniyati shu qadar kattaki, ular uchun bir xil turdagи ta`lim berishning imkoni yo`q.Masalan , harakatlanishdagi chekllovlar (paraplegiya, serebral falaj, mushak distrofiyasi), aqliy rivojlanishning intellektual buzilishi (down sindromi, autizm , o`rganishdagi qiyinchiliklar) , ko`rish , eshitish , nutq bilan bog`liq nogironligi bo`lgan o`quvchilarga ta`lim berish jarayoni bir qancha holatlarni mujassamlashtirishi kerak. Imkoniyati cheklangan o`quvchilarning turli-tumanligi va serqirraligini hisobga olgan holda ta`lim jarayonini tashkil etish lozim. Inklyuziv ta`lim jarayonida bunday jihatlar inobatga olingan holda , individuallashtirilgan , maxsus pedagogik-psixologik sharoitlar yaratiladi.

Imkoniyati cheklangan o`quvchilarning sog`lom bolalar bilan bir sinfda yoki guruhlarda o`qishi ularning cheklangan ta`lim olish imkoniyatlariga zamin yaratadi . Bunda o`qituvchilar ham , ta`lim jarayoni ham maxsus pedagogik tashkillashtirilgan bo`lishi , imkoniyati cheklangan o`quvchilarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash zarur hisoblanadi. Masalan, ko`zi ojiz o`quvchilar uchun ta`lim jarayoni maxsus usul va vositalar bilan tashkil etiladi:Braille alifbosi (Brayl yozuvi):Bu ko`zi ojiozlar uchun maxsus nuqtali yozuv usuli hisoblanadi.Yozuv , darsliklar , hatto klaviaturalar ham Brayl formatida tashkil etiladi. Ma`lumotlar audio yoki video ko`rinishida tashkillashtiriladi. Xaritalar, grafiklar va diagrammalar maxsus bo`rtma (taktil) formatda tayyorlanadi, shunda qo`l bilan sezib o`rganishlari mumkin bo`ladi yoki ko`zi ojiz o`quvchilar uchun umumiy o`rta ta`lim 9 yil emas , balki ularning imkoniyatidan kelib chiqib 10 yil davom etishi mumkin.Yana bir misol, oyog`ida nuqsoni (masalan,yurish qiyinligi, falaj , amputatsiya va boshqalar) bo`lgan o`quvchilar uchun ta`lim jarayoni maxsus moslashtirishlar bilan olib boriladi. Maktab binolari nogironlar aravachasi uchun panduslar (rampalar) , keng eshiklar, maxsus liftlar va tutqichlar bilan jihozlanadi.An`anaviy sport mashg`ulotlari o`rniga , ular uchun moslashtirilgan mashqlar , stol tennisi , o`tirib o`ynaladigan basketbol kabi sport turlari joriy qilinadi. Integratsiyaning bunday shakli samarali hisoblanadi. Aqliy jihatdan nuqsoni bo`lgan bolalar o`quv mashg`ulotlarini o`zlashtirishda tengdoshlaridan orqada qolishi yoki o`zib ketishi mumkin va bunday holatlarda o`qituvchi ta`lim dasturlariga qo`shimcha yoki o`zgartirishlar kiritgan holda individual mashg`ulot olib borishi talab qilinadi.

Bugungi kunda inklyuziv ta`lim jarayoni nafaqat nogironligi bo`lgan o`quvchilar uchun , balki barcha jamiyat a`zolari uchun teng huquqlarni kafolatlash yo`lidagi muhim qadamdir. Jahon miqyosida olib borilayotgan islohotlar , xalqaro hamkorlik va davlat siyosatidagi o`zgarishlar ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun kuchli poydevorbo`lib xizmat qiladi. Jahon ta`limi miqyosida oladigan bo`lsak , rivojlangan mamlakatlar ta`lim tizimida inklyuziv ta`limga alohida e`tibor berilgan va tizimli tashkillashtirilgan.Masalan, Finlandiya inklyuziv ta`limb o`yicha yetakchi mamlakatlardan biridir. Maktablarda

Date: 5th June-2025



barcha o`quvchilar, qobiliyati va ehtiyojlaridan qat`iy nazar , birgalikda ta`lim oladilar.Individual o`quv rejalar tuzilib , o`qituvchilar maxsus treninglardan o`tadi.Yaponiyada inklyuziv ta`limning o`ziga xos modeli mavjud bo`lib , maktablarda ‘Resourse rooms’ (resurs xonalari) tashkil etilgan . U yerda imkoniyati cheklangan o`quvchilar uchun maxsus mashg`ulotlar o`tkaziladi, yuqori texnologik moslashuv vositalaridan foydalilaniladi.

O`zbekistonda ham inklyuziv ta`limni keng yo`lga qo`yish bilan bog`liq islohotlar amalga oshirilmoqda. 2021- yilda ‘ Nogironligi bo`lgan shaxslarning huquqlari to`g`risida’ gi Qonun qabul qilinib , ularning ta`lim olish huquqlari kafolatlandi. 2023-yilda Inklyuziv ta`limni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqildi.Maxsus maktablar , reabilitatsiya markazlari va psixologik-pedagogik markazlar soni oshirilmoqda . Maktablarda defektolog , logoped va psixologlar faoliyati yo`lga qo`yilmoqda .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Shahnigor , Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna . ‘FORMATION OF KNOWLEDGE , SKILLS AND COMPETENCES IN THE PROCESS OF TRAINING CHILDREN WITH HEARING DEFECTS TO WORK.’ Conferencia 3.03 (2023): 188-192.
2. Sadikovna Rakhomova Khurshidakhon .’COCHLEAR IMPLANTATION : WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS.’ Conferencia 3.03 (2023): 226-230.
3. Raximova , Xurshidaxon . ‘NATIONAL AND FOREIGN ADVANCEDTRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT.’ JOURNAL OF NOTHERN UNIVERSITY (2022).
4. Sadikovna Raximova Khurshidaxon and Abdalova Nodira Bahtiyorovna .” Kohlear implantasiyasiyadan so`ng og`zaki va yozma nutqni egallashdagi muammolar.” Conference Zone. 2022.
5. Maxmudova Madinaxon and Babayeva Azizabonu . ‘RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR LUG`ATINING PSIXIK RIVOJLANISHI BILAN BOG`LIQLIGI.’’ Conference Zone. 2022.
6. Madinakan Makhmudova and Abdukhakimova Zumradkhan . ‘WAYS OF FORMING THE READINESS OF CHILDREN WITH UNDERDEVELOPED SPEECH FOR WRITTEN SPEECH .’’ (2023).
7. Sobirkhanovna Makhmudova Madinakan. ‘PECULIARITIES OF WORKING WITH CHILDREN WITH MENTALLY REALITED IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION .’’ (2023).